

O'ZBEKISTONDA TRANSPORT XIZMATLARI FAOLIYATI TAHLILI VA XIZMATLAR BOZORIDAGI TENDENSIYALAR O'ZGARISHI

Ozodbek Badalovich Tursunov

Farg'ona davlat universiteti o'qituvchisi

712000, Farg'ona shahar, Murabbiylar ko'chasi 19 uy

ozodbektursunov198812@gmail.com

Annotatsiya: Maqolada innovasion yondoshuv asosida transport xizmatlari samaradorligini oshirish orqali ichki va tashqi bozorlarning konyukturasiga mos keladigan yuqori qo'shimcha qiymatga ega mahsulotlarni eksport va import qilish orqali mintaqaning ijtimoiy - iqtisodiy o'sishining barqarorligini ta'minlaydigan asosiy yo'llari aks ettirilgan. Transport va turizm o'rtasida yaqin aloqalar mavjud bo'lishi vaqt o'tishi bilan o'zgargan turizmning rivojlanishida turli xil transport turlari turli rol o'ynaydi.

Kalit so'zlar: Shahar transport tizimlari, zamonaviy jamiyat ehtiyojlari, asosiy ko'chalar tarmog'i, shahar jamoat yo'lovchi transporti, davlat diagnostikasi.

KIRISH

Ma'lumki, har bir mamlakat iqtisodiyotining rivojlanishida uning qon tomiri bo'lgan transport-logistika tizimi juda muhim ahamiyatga ega. Hozirda shahar transport tizimlarining holati zamonaviy jamiyat ehtiyojlariga javob bermaydi. Bozor iqtisodiyotiga o'tish shahar transport tizimlarining ishini o'zgartirishga olib keldi. Katta shaharlardagi transport muammolari eng keskin bo'lib, bu yerda avtomashinalarning ko'payishi natijasida yo'lovchilarning harakatlanish vaqtini yo'qotishlari ruxsat etilgan me'yorlardan sezilarli darajada oshib ketadi, shahar yo'lovchi transportining tashish qobiliyati muqarrar ravishda pasayib bormoqda.

Shahar transport tizimlarining samaradorligini oshirishga tizimni rejalashtirish, tashkil etish va faoliyatini ta'minlaydigan barcha bo'g'inlarning oqilona va yaxshi muvofiqlashtirilgan ishlashi, ularning ijtimoiy-iqtisodiy va ekologik manfaatlarini ham o'zaro, ham tashqi muhit bilan to'liq muvofiqlashtirish orqali erishiladi.

Shahar transport tizimlarining eng oqilona varianti quyidagi mezonlar bilan belgilanadi: sayohat vaqti, yuk tashish qobiliyati, almashinuv, iqtisodiy ko'rsatkichlar; transport tizimining transport turlari bo'yicha xususiyatlari, ularning tashish qobiliyati, masofasi, transport vositalarining tezligi, yo'lovchi va yuk tashish hajmining taqsimlanishi; yo'l tarmog'ining xususiyatlarini ham o'z ichiga olgan yig'ma tushuncha sifatida foydalanish mumkin [1-9].

Jahonda, ayniqsa globallashtirish sharoitida milliy, mintaq va xalqaro darajalarda transport-logistika xizmatlarini sifatli ko'rsatish tobora katta ahamiyat kasb etmoqda. Mazkur jarayonda avtotransport xizmatlari bozori muhim segment sifatida o'rin tutib, "dunyoda yalpi ichki mahsulotdagi uning ulushi 6,8 foizini tashkil etdi" [3]. Bugungi kunda

dunyoda yuz berayotgan globallashuv jarayonlarida transport infratuzilmasining ahamiyati tobora ortib bormoqda.

Mazkur soha faoliyatini takomillashtirish vazifalari Jahon transport va logistika tizimi (The global transport and logistic system) tomonidan amalga oshiriladi. Jahon banki guruhi ma'lumotlariga ko'ra, jahon transport xizmatlarining YalM tarkibidagi miqdori 4,2 trln. AQSh dollari (6,8%) hajmida baholanib, yiliga 110 mlrd. tonna yuk va 1 trln. dan ortiq yo'lovchilar tashilgan, transport infratuzilmasida band bo'lgan xodimlar soni 100 mln. kishini tashkil etadi [9]. Shular bilan bir qatorda transport, jumladan, avtotransport sohasi energiya va tabiiy resurslarning katta qismini iste'mol qilinishi barobarida boshqa tarmoqlarning jadal rivojiga sezilarli darajada ta'sir ko'rsatmoqda.

Tahlilning natijalariga ko'ra, rivojlangan mamlakatlarda mahsulot va xizmatlar tannarxida transport sohasining ulushi 8-9 foizni tashkil qilib, mazkur ko'rsatkich dengiz yo'llariga to'g'ridan-to'g'ri chiqish imkoniyati bo'lmagan mamlakatlarda 1,5 barobargacha yuqori bo'lmoqda. Bular o'z navbatida transport-logistika korxonalarining raqobat salohiyatidan samarali foydalanish zaruratini yanada dolzarblashtirmoqda. Samarador transport-logistika tizimi ichki bozorda tayyor mahsulot va xom-ashyo harakatini optimallashtirish orqali tovar va xizmatlarning xaridorlar uchun qulay sharoit va arzon narxlarda yetkazib berilishini ta'minlaydi, bozordagi raqobatni rag'batlantiradi. Tashqi bozorda esa mamlakatning iqtisodiy raqobatbardoshligini oshiradi va jahon iqtisodiyotiga integratsiya jarayonini tezlashtiradi.

Ta'kidlash joizki, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Oliy Majlisga Murojaatnomasida yurtimizda transport-logistika tizimini takomillashtirish dolzarb masala ekanligi, dengizga chiqish imkoniyatimiz cheklangani uchun mahsulotni eksport qilishda qiyinchiliklarning mavjudligi, tovarlari-mizni eksport qilish bo'yicha zamonaviy logistika yo'nalishlarini yaratishlari zarurligi, Vazirlar Mahkamasi esa eksport yuklarini qo'shni davlatlardan imti-yozli narxlarda o'tkazish bo'yicha muzokaralar olib borishi kerakligi, shu bilan birga, Jahon bankining «Logistika samaradorligi indeksi»dagi o'rnimizni kamida 20 pozisiya yuqoriga ko'tarish choralarini ko'rish masalalari ko'tarilgan edi. Bu belgilangan vazifalarning ijrosini ta'minlashda parlament nazorati mexanizmlaridan samarali foydalanish doirasida mamlakatimizdagi transport logistika kompaniyalar mazkur sohada olib borilayotgan ishlar bilan birga bugungi kunning dolzarb masalalaridan ekanligini ta'kidlash mumkin.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR

Hozirgi globallashuv sharoitida dunyoda tezkor o'sish, yuksalishga yo'naltirilgan ko'plab yondashuvlar jamoaviy uyg'unlashuvni talab etmoqda. Ma'lumki, butun dunyoda erkin iqtisodiy zonalar, texnoparklar, klasterlar, korporatsiyalar kabi zamonaviy yondashuvlar bilan tashkil etilayotgan logistika infratuzilmalarining soha va ixtisosliklar yuksalishidagi roli beqiyos. Har bir sohada innovatsion muhitning shakllanishi, rivoji bilan bog'liq qonuniyatlarni muntazam tahlil qilish hamda samarali foydalanish bugungi kun talabidir. Chunki, innovatsiya bilimlar tugal konsentratsiyalashgan integratsiyalashuv tufayli paydo bo'lgan g'oyadan boshlanuvchi ilmiy-tadqiqot, fan, ta'lim va ishlab

chiqarishning faol hamkorligi mahsuli, yangilanishlarga asoslangan to'kin va farovon hayot, ijtimoiy-iqtisodiy yuksalishni ta'minlovchi omildir. Shu nuqtai nazardan logistika masalalari bo'yicha ham xorijlik tadqiqotchilar ushbu ilmiy yo'nalishlarni alohida va tizimli tavsiflarda tasvirlaydi. Mukammal logistikaning nazariy jihatlarini D. Bauersoks, M. Linders, Mirotin L.B., D. Uoters, K. Laynos, M. Djillingem, Dj.R. Stok, D.M. Lambert, A.M. Gadjinskogo, A.G. Kalchenko, T.V. Kosarev, M.A. Oklander, V.I. A.N. Rodnikov, Sergeev, A.D. Chudakov, N.I. va boshqalar ishlarida yoritilgan.

Xususan, D. Bauersoksning fikricha, logistika infratuzilmasi ob'ektlari, axborot vositalari, transport kompaniyalari va ularning imkoniyatlari, ombor-xonalar, yuklarni tashish, qadoqlash, inventarizatsiyani boshqarish, yuklarni yuklash va tushirish terminallari va chakana do'konlarga tegishlidir. Muallifning fikricha, logistika infratuzilmasini tashkil etishda ma'lum geografik joyla-shuvi bo'lgan ob'ektlar (ombor komplekslari) sonini aniqlash va har bir joyda saqlanuvchi mahsulot zaxiralarini hisoblash kerak. Shu bilan birga muallif, transport tarmoqlari, transport vositalari va transport kompaniyalarini o'z ichiga olgan transport logistika infratuzilmasini alohida qayd etadi [2].

A.D. Chudakov logistika infratuzilmasi deganda moddiy-texnika resurslari yetkazib beruvchilarning ta'minot zanjiri ishtirokchilari, tayyor mahsulotlar ishlab chiqaruvchilar va mahsulot iste'molchilarini tushunadi. Shu nuqtai-nazar-dan, logistika infratuzilmasida muallif logistikaning barcha sohalarini (quyi tizimlarini) o'z ichiga olishini ta'kidlaydi. Bular: moddiy-texnik ta'minot, transport va saqlash, inventarizatsiyani boshqarish, marketing faoliyatidir [7].

Yuqoridagi fikrlarni inobatga olgan holda, bizningcha logistika aniq hisob-kitob qilish san'ati, oqilona boshqarish tizimi infratuzilmasiga, iqtisodiyotning raqobatbardoshligini oshiruvchi, logistika faoliyatini amalga oshirish uchun zarur bo'ladigan bino-inshoot, transport tizimlari, ishlab chiqarish ob'ektlari, yuk tashuvlari, omborxonalar majmuasi deb ta'rif berish mumkin.

Mamlakatimizda logistika tizimi samaradorligini oshirish, ushbu jarayondagi muammolarni hal etish maqsadida rivojlangan mamlakatlarning logistika ko'rsatkichlari indeksi, logistika markazlari faoliyatini qo'llab-quvvatlash tajribasini

tahlil qildik, qiyoslash, analiz, sintez usullari orqali ular faoliyatini rivojlantirish yo'nalishlarini keltirdik.

NATIJALAR

Jahon transport tarmoqlarining umumiy uzunligi dengiz yo'llarini hisobga olmaganda 38 mln. kilometrdan oshiqni tashkil etadi: avtomagistrallar - 26 mln. km; temiryo'llar - 1,24 mln. km; quvurlar - 1,8 mln. km; havo yo'llari - 9,6 mln. km; daryo yo'llari - 0,57 mln.km. rivojlangan mamlakatlar transport tarmoqlarining uzunligi jahon transport tarmoqlari umumiy uzunligining 79 %ini tashkil etadi [4]. Barcha turdagi xizmatlarning jahon eksport va importida transport xizmatlari ulushi taxminan 25 % (5,5 trln. AQSh doll.)ni tashkil etadi. Jahon bozorida qiymat ko'rsatkichi bo'yicha transport-ekspedi-torlik xizmatlarini ko'rsatuvchilar faqatgina eng yirik tovar eksportchilaridan keyingi o'rinda turadilar [5].

Logistik xizmatlar ko'rsatuvchilarning eng yirigi AQSh hisoblanadi. Ular 80-90 mlrd. AQSh dollarlik transport-ekspeditorlik xizmatlarini eksport qiladilar. Ammo 90-100 mlr. AQSh dollari miqdoridagi transportekspeditorlik xizmatlarini import ham qiladilar. Mazkur xizmatning eng yirik eksportchilariga Germaniya (25-26 mlrd. AQSh doll.), Yaponiya (40-45 mlrd. AQSh doll.) hamda Buyuk Britaniya, Gollandiya, Gongkong (22-28 mlrd. AQSh doll.), Koreya v.b (4). Logistik xizmatlarni import qilishda AQShdan keyingi o'rinlarda Germaniya - 52 mlrd. AQSh doll. (7,56 %); Yaponiya - 42,3 mlrd. AQSh doll. (6,24 %i); Buyuk Britaniya - 35,8 mlrd. AQSh doll. (3,47 %i); Koreya Respublikasi - 29,9 mlrd. AQSh doll. (3,41%); Italiya - 22,6 mlrd. AQSh doll. (3,3%), Gollandiya - 16,6 mlrd. AQSh doll. (2,41 %) v.b [6].

Ushbu mamlakatlarning jahon bozorida transport xizmatlarini sotish va sotib olishdagi yetakchiligini ularning jahon tovar aylanmasi hamda xalqaro mehnat taqsimotidagi faol ishtiroki bilan izohlash mumkin. Ma'lumki, O'zbekistonda intermodal logistika xabida xizmat ko'rsatish jarayoni yil sayin takomillashib borayapti [9]. U Osiyoni Yevropa bilan bog'lovchi asosiy avtomobil hamda temir yo'l tarmoqlari chorrahasida, geografik jihatdan nihoyatda qulay nuqtada joylashganligi tufayli qisqa muddatda Markaziy Osiyodagi eng yirik yuk tranziti qo'nalg'asiga aylandi. Milan, Rim, Vena, Bryussel, Frankfurt, Incheon, Dubay, Xanoy, Tyanszin, Dehli, Mumbai kabi shaharlarning logistika markaz-lari bilan yaqindan hamkorlik o'rnatilgani, 2020 yilda jami yuk tashuvlarining hajmi 1,3 mlrd. tonna (o'tgan yilga nisbatan 104,6 foiz), yuk aylanmasi 40,1 mlrd. tonnani (101,8 foiz) tashkil etdi. Barcha transportda yo'lovchi tashish hajmi 5,26 mlrd. yo'lovchi (87,2 foiz), yo'lovchi aylanmasi 116,96 mlrd. yo'lovchi/km.ni (83,5 foiz) tashkil etdi.

Jami xalqaro yuk tashuvlari hajmi (eksport, import va tranzit) 46,9 mln. tonnani yoki o'tgan yilning mos davriga nisbatan 108,5 foizni tashkil etdi. Eksport yuklari 13,2 mln. tonna (2019 yilga nisbatan 117,1 foiz), import 24,5 mln. tonna (102,4 foiz) va tranzit 9,07 mln. tonnani (114,7 foiz) tashkil etdi. Xalqaro tashuvlarda temir yo'llari 39,5 mln. tonna (112,7 foiz), avtomobil 7,3 mln. tonna (90,3 foiz), aviatashuvlar 60,6 ming tonnani (138,9 foiz) tashkil etishi va uning yildan -yilga ortgani ana shundan dalolat beradi. Biroq, Iqtisodiy tadqiqotlar markazi mutaxassislarining tadqiqot-lariga ko'ra, jumladan, mamlakatimiz avtomobil transporti operatorlari tomonidan ko'rsatilayotgan yuk tashish xizmatlari tannarxi tarkibi rivojlangan mamlakat-larning o'xshash ko'rsatkichlaridan juda katta farq qilar ekan. Ayniqsa, tannarx tarkibida yonilg'i, amortizatsiya xarajatlari, soliq va yig'imlar ulushi bir necha marotaba yuqori bo'lib, rag'batlantirishning eng samarali vositasi hisoblanuvchi haydovchilar ish haqi ulushi 3 barobardan ham kamroq ekan [8].

Yevropa Ittifoqi davlatlari va O'zbekiston Respublikasida avtomobil transportida yuk tashish tannarxining tarkibiy tuzilishi[8-9-10]
X arajatlar nomi, O'zbekiston, % da Evropa Ittifoqi, % da Evropa Ittifoqi davlat-larini O'zbekistonga nis-batan farqi, +/-
Tashish tannarxidagi ulushi 37 - 40 16 - 20 -19-20
Yoqilg'i moylash mate-riallari 2,0-2,5 2,0-3,0 -0,5

Haydovchining ish haqi 15-16 52-55 +37+39
Shina xarajatlari 2,0-2,5 1,0-1,1 -1,0-1,4
Amortizatsiya ajratmalari 10-12 5-6 -5,0-6,0
Soliq va yig'imlar 6-7 1,0-2,0 -4,0-5,0
Boshqa xarajatlar 20-21 16-17 -4,0

Quyidagi keltirilgan jadval ma'lumotlariga ko'ra, tashish xarajatlarining asosiy moddalari transport vositalariga texnik xizmat ko'rsatish va yoqilg'i moylash materiallari hisobiga to'g'ri keladi. Respublika hududiy avtomobil transporti birlashmalarida ishlatilayotgan transport vositalarining eskirish darajasi ularning avtomobil transporti xizmati ko'rsatish bozoridagi raqobatga bardosh bera olmasligining asosiy sabablaridan biri bo'lib qolmoqda.

Mamlakatimiz dengiz va okean portlariga bevosita chiqish imkoniyatiga ega emas. Shu munosabat bilan 1996 yil aprelda «TRASEKA» dasturiga muvofik idoralararo ishchi guruhi tuzilib, bu guruh transport koridorlarini tashkil qilish va ularni umumlashtirish masalalarini hal qildi. Ulardan quyidagi transport koridorlari qurilishi amalga oshiriladi [9]:

- Tashkent - Ashgabad - Turkmanboshi porti - Baku porti.
- Almata - Toshkent - Istanbul avtomagistrali.
- Markaziy Osiyo mamlakatlari - Sharqiy Xitoyning portlaridan birigacha.
- Markaziy Osiyo mamlakatlari-Tedjen-Seraxs-Mashhad-Bandar Abbas porti.
- Markaziy Osiyo mamlakatlari - Eron Islom Respublikasi - Turkiya Istanbul porti.

Shaharlarning transport tizimlari umumiy va xususiy belgilar va natijada umumiy va xususiy ko'rsatkichlar bilan tavsiflanadi. Umumiy tizimlarga transport hajmi va ularning harakatlanish vositasida tuzilishi [4,5,6,] harakatning o'rtacha masofasi, harakatga o'rtacha vaqt va shu maqsadda sarflangan kunlik vaqt, harakatning o'rtacha tezligi kiradi. Harakatning davomiyligi ajralmas ko'rsatkichdir, chunki u shahar va uning transport tizimini rivojlantirishning barcha jihatlarini jamlaydi: iqtisodiyot darajasi, uy-joy va ish joylarining joylashishi, madaniy-maishiy ob'ektlar, avtomobilsozlikni rivojlantirish va asosiy ko'chalar tarmog'i, harakatni tashkil etish va harakatlanuvchi tarkibni saqlash, uyda ko'rsatiladigan xizmatlar darajasi, shu jumladan. virtual tizimlardan foydalanish. SHu bilan birga, turli yo'llar bilan harakatga sarflangan vaqtning tuzilishi juda muhim [7,8,9,10,11-16].

Jamiyatning shahar transport tizimlarining ishidan qoniqish darajasi butun tizim sifatining asosiy ko'rsatkichidir, ammo bu ko'rsatkich amalda o'rganilmagan. SHubhasiz, shahar transport tizimlarining barcha quyi tizimlari birgalikda ko'rib chiqilishi kerak, jumladan: shahar yo'lovchi va yuk tashishni boshqarish amaliyoti, harakatni tashkil etish, shu bilan birga ekologik mezonlarni hisobga olish kerak. SHahar transport tizimlari sohasidagi har qanday yechim yo'lovchi-yuk kommunikatsiyalarini o'rganish va transport tarmog'ini rivojlantirishni loyihalashga asoslangan bo'lishi kerak. SHu munosabat bilan yirik iqtisodiy rayonlarda shaharlar transportini rejalashtirish bo'yicha ilmiy markazlarni munitsipal-xususiy aralash kooperatsiya asosida tashkil etish maqsadga muvofiqdir [12,13,14,15].

MUHOKAMA

Ekspertlarning tahliliga ko'ra, iqtisodiyotning o'sish sur'atlari transport xizmatlari taraqqiyoti bilan uyg'un ravishda kechadi. Jumladan, yalpi ichki mahsulotning yiliga o'rtacha 8 foizdan barqaror yuksalishi uchun yuk tashish hajmining o'sishi 10 foizdan kam bo'lmasligi, transport tarmog'iga yo'naltirila-digan investisiyalar miqdori esa o'tgan yildagiga nisbatan 15 foizdan ziyodroqni tashkil qilishi lozim. Ma'lumki, mamlakatimizda mazkur sohaga har yili juda katta mablag' sarflanmoqda. Prezidentimizning "2015-2019 yillarda muhandis-lik-kommunikatsiya va yo'l-transport infratuzilmasini rivojlantirish va moder-nizatsiya qilish dasturi to'g'risida"gi qaroriga ko'ra esa, umumiy qiymati 10 milliard dollarlik 150 dan ortiq loyiha amalga oshiriladi. Albatta, bunday ishlarning bajarilishi esa zamonaviy logistika tizimini hayotga yanada kengroq tatbiq etish, mavjudlarini tubdan takomillashtirish hamda rivojlantirishga xizmat qiladi.

Transport-logistika xizmat ko'rsatish tizimi salohiyatidan samarali foydalanishning ilmiy-nazariy asoslari tadqiq qilinib, ularning raqobat salohiyatini oshirishning metodologik tamoyillari aniqlandi, ularda raqobat salohiyatining shakllanishi va jamlanma iqtisodiy salohiyatga ta'siri mexanizmi ochib berildi. Shu bilan birga mamlakat transport-logistika tizimida avtomobil transportining o'rni, transport xizmatlari ko'rsatish salohiyatining zamonaviy rivojlanish holati o'rganildi, unga iqtisodiy baho berildi. Xususan, transport-logistika salohiyatini asosi sifatida resurslardan foydalanish darajasi tahlil etilib, qo'shimcha o'sish sur'atiga asosan ekstensiv o'sish omili kuchliroq ta'sir etganligi qayd etildi. Bundan transport-logistika salohiyatini oshirish uchun intensiv omillarning mavjud zaxiralaridan to'liq foydalanilmayotganligi aniqlandi.

Xulosani shakllantirish orqali transport - logistika xizmatlari samara-dorligini oshirish uchun quyidagi takliflarni amalga oshirishni lozim deb hisobladik:

- transport-logistika tizimiga xorijiy va mahalliy investisiyalarni keng jalb qilish orqali mamlakatimizning barcha hududlarida zamonaviy logistika markazlarini barpo etish va ulardan samarali foydalanish borasidagi ishlarni jadal sur'atlarda davom ettirish ko'zlangan natijaga erishishni ta'minlaydi;

XULOSA

- mahalliy, eksport-import va tranzit tovar aylanmasini rivojlantirishga ko'maklashuvchi logistika markazlari tashkil etishni o'z ichiga oluvchi transport infratuzilmasi va xizmatlarini rivojlantirishga alohida e'tibor qaratish;

- xalqaro transport yo'laklarini rivojlantirish, logistika tizimini takomillashtirish, mamlakatning transport salohiyatidan samarali foydalanish, tadbirkorlik sub'ektlarining logistika xizmatlari xarajatlarini kamaytirish chora-tadbirlarni amalga oshirish.

ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. 2017-2021 yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha harakatlar strategiyasi - [http:// strategy. regulation. gov.uz/uz/document/2](http://strategy.regulation.gov.uz/uz/document/2)

2. Бауэрсокс Д. Логистика. Интегрированная цепь поставок. — М.: -Бизнес,
3. Владимиров С.А. Мировая транспортная система и логистика: основные направления развития //Региональная экономика и управление: электронный научный журнал // Номер журнала: №2 (46), 2016
4. Urokboyevich, T. S. (2021). TURIZMNING MAMLAKAT IJTIMOIY-IQTISODIY RIVOJLANISHIDAGI AHAMIYATI. *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, 1(4), 1128-1132. 10. Узбекистон Республикаси Давлат статистика кумитасининг йиллик хдсботлари. www.stat.uz
5. Maxsudov, S., Tursunov, O., Baltabayeva, M., Akhmadaliyeva, M., & Rakhimova, K. (2023). Influence of the innovative environment on the activation of enterprises in free economic zones. In *BIO Web of Conferences* (Vol. 65, p. 09004). EDP Sciences.
6. Badalovich, T. O. (2023). IQTISODIYOTNI MODERNIZATSIYALASH SHAROITIDA TRANSPORT INFRAUZILMASI RIVOJLANTIRISH VA TRANSPORT XIZMATLARINING BOSHQARUV SAMARADORLIGINI OSHIRISH MEKANIZMINI TAKOMILLASHTIRISH. *BARQARORLIK VA YETAKCHI TADQIQOTLAR ONLAYN ILMIY JURNALI*, 3(5), 178-184.
7. Турсунов, О. (2023). РОЛЬ И ЗНАЧЕНИЕ ЛИЗИНГА В ПОВЫШЕНИИ ЭФФЕКТИВНОСТИ ИНВЕСТИЦИОННОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ. *Ethiopian International Journal of Multidisciplinary Research*, 10(09), 286-289.
8. Умаров, О. Қ., & Турсунов, О. Б. (2023). Миллий боғ ва хиёбонлардан фойдаланишнинг иқтисодий самарадорлиги. *BARQARORLIK VA YETAKCHI TADQIQOTLAR ONLAYN ILMIY JURNALI*, 3(4), 389-393.
9. Umarov, O. Q., & Tursunov, O. B. (2023). Socio-Economic Effectiveness of State Leadership. *Web of Synergy: International Interdisciplinary Research Journal*, 2(3), 97-101.
10. Турсунов, О. (2023). МИНТАҚАВИЙ ТРАНСПОРТ ИНФРАУЗИЛМАСИНИ СТРАТЕГИК БОШҚАРУВ МЕХАНИЗМИНИ ТАКОМИЛЛАШТИРИШ. *Research Focus*, 2(2), 46-53.
11. Tursunov, O. (2023). TRANSPORT XIZMATLARINING SHAKLLANISHI VA RIVOJLANISHINING NAZARIY ASOSLARI. *Евразийский журнал академических исследований*, 3(1 Part 2), 170-175.
12. Турсунов, О. (2022). ТРАНСПОРТ ХИЗМАТЛАРИ ВА ИНФРАУЗИЛМАСИНИ РИВОЖЛАНТИРИШНИНГ ХОРИЖИЙ МАМЛАКАТЛАР ТАЖРИБАСИ. *Евразийский журнал академических исследований*, 2(13), 4-9.
13. Турсунов, О. Б. (2022). ЎЗБЕКИСТОНДА ИҚТИСОДИЁТНИ МОДЕРНИЗАЦИЯЛАШ ШАРОИТИДА ТРАНСПОРТ ХИЗМАТЛАРИ ФАОЛИЯТИНИ БОШҚАРИШ ВА САМАРАДОРЛИГИНИ ОШИРИШ ЙЎЛЛАРИ. *IJTIMOY FANLARDA INNOVASIYA ONLAYN ILMIY JURNALI*, 2(12), 41-45.
14. Турсунов, О. Б., & Турғунов, З. Х. (2022, December). ИҚТИСОДИЁТНИ МОДЕРНИЗАЦИЯЛАШ ШАРОИТИДА ТРАНСПОРТ ХИЗМАТЛАРИ ВА ТРАНСПОРТ ИНФРАУЗИЛМАСИ ШАКЛЛАНИШИНИНГ ХУДУДИЙ

ХУСУСИЯТЛАРИ. In *Proceedings of Scientific Conference on Multidisciplinary Studies* (Vol. 1, No. 3, pp. 28-32).

15. Badalovich, T. O. (2022). Legal and institutional basis of development of transport services and transport infrastructure during the coronavirus pandemic. *Asia Pacific Journal of Marketing & Management Review* Issn: 2319-2836 Impact Factor: 7.603, 11(09), 55-61.

16. Турсунов, О. Б. (2022). Иқтисодий эркинлаштириш даврида транспорт хизматлари ва инфратузилмасининг ривожланиш тенденциялари ва ҳудудий хусусиятлари. *Ta'lim fidoyilari*, 8, 196-204.

17. Badalovich, T. O. (2022). Indicators representing the level of provision of transport services and infrastructure of the region. *International Journal of Social Science & Interdisciplinary Research* Issn: 2277-3630 Impact Factor: 7.429, 11(09), 123-127.

18. Турсунов, О. Б. (2022). ТРАНСПОРТ ИНФРАТУЗИЛМАСИНИНГ МАЗМУНИ, ТАРКИБИ ВА МИНТАҚА ИҚТИСОДИЙ РИВОЖЛАНИШИГА ТАЪСИРИ. *SO'NGI ILMIY TADQIQOTLAR NAZARIYASI*, 5(2), 190-196.

19. Турсунов, О. Б. (2022). Транспорт Инфратузилмасининг Назарий Асослари.